



<https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i06.103>

SOMATIK KOMPONENTLI O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI

Sobirova Muxlisa Shamsiddin qizi
BuxDU 2-bosqich tayanch doktranti
email: m.sh.sobirova@buxdu.uz
ORCID:0009-0007-5753-6809

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq paremalarida uchraydigan somatik komponentlarning semantik tabiati hamda ularda kuzatiladigan ma'no ko'chish usullari tahlil qilinadi. Inson tana a'zolari nomlari ishtirok etgan paremalar xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida o'rganiladi. Maqolada somatik komponentli o'zbek xalq maqollaridagi metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik singari ma'no ko'chish jarayonlari tavsiflanadi va tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: parema, somatizm, ikkilamchi nominatsiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, semantika

Abstract: This article analyzes the semantic nature of somatic components occurring in Uzbek folk proverbs and the methods of meaning transfer observed in them. Paremias involving the names of human body parts are studied as important linguistic units reflecting the centuries-old experience, worldview and cultural values of the people. The article describes and analyzes the processes of meaning transfer in Uzbek folk proverbs with somatic components, such as metaphor, metonymy, synecdoche and functional transfer.

Key words: paremia, somatism, secondary nomination, somatic component, paremia, metaphor, metonymy, synecdoche, functional transfer, semantics,

Аннотация: В данной статье анализируется семантическая природа соматических компонентов, встречающихся в узбекских народных пословицах, и методы переноса смысла, наблюдаемые в них. Паремии, включающие названия частей человеческого тела, рассматриваются как важные языковые единицы, отражающие многовековой опыт, мировоззрение и культурные ценности народа. В статье описываются и анализируются процессы переноса смысла в узбекских народных пословицах с соматическими компонентами, такими как метафора, метонимия, синекдоха и функциональный перенос.

Ключевые слова: вторичная номинация, соматический компонент, паремия, метафора, метонимия, синекдоха, функциональный перенос, семантика,

KIRISH

Til xalq tafakkuri va dunyoqarashining eng muhim ifodachisi hisoblanadi. Har bir xalqning tarixi, madaniyati, axloqiy me‘yorlari, ijtimoiy qarashlari va milliy qadriyatlari til birliklarida o‘z aksini topadi. Ana shunday til birliklardan biri paremalardir. Paremalar xalq donishmandligining ixcham va obrazli ifodasi bo‘lib, o‘zida ajdodlar tajribasini umumlashtiradi.

Maqol yoki parema – koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan hikmatli iboralardir.¹⁸¹ Maqollar xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalaridan iborat hikmatli so‘zlardir. O‘zbek tilida hikmatli iboralarni, umuman, maqol deb atashadi¹⁸².

Maqollar tarkibidagi har bir lisoniy birlik tilshunoslar e‘tiborini tortib kelgan. Ayniqsa, somatik birliklar maqol tarkibida kelib, uning semantik, funksional va stilistik qurilishida muhim rol o‘ynaydi, maqolning denotativ va konnotativ ma‘nosini boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Somatizmlar inson va hayvon tana a‘zolari nomlarini ifodalovchi til birliklari bo‘lib, turli tillarda keng qo‘llanishi bilan universal xususiyat kasb etadi. Somatizmlar atamasi fanga tilshunos olim F.Vakk tomonidan olib kirilgan bo‘lib, grekchadan tarjima qilinganda, (soma) ya‘ni tana degan ma‘noni anglatadi. Somatizm komponentlari yoxud somatik birliklar deganda nafaqat insonning tashqi tana a‘zolarini, balki ichki a‘zolarini ham ifodalovchi leksik birliklar, ya‘ni so‘zlar tushuniladi.

Somatik lug‘at – bu doimiy miqdordagi nominatsiya obyektlariga ega bo‘lgan va leksik birliklarning ma‘lum bir tarkibini belgilash uchun mo‘ljallangan yaxlit bir tizim.

Somatizmlarni fanga olib kirgan olim F.Vakk ularga quyidagilarni kiritadi: inson va hayvon tana a‘zolarining nomlari, tanadagi suyuqliklar(*qon, limfa*) va tan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan *jon, suyak, asab* va boshqa shu kabi uzvlar. Vakk fikricha, somatizmlar 3 ga bo‘linadi:

- 1) inson bilan bog‘liq somatizmlar
- 2) hayvonlarga aloqador somatizmlar
- 3) aralash somatizmlar (ham insonga, ham hayvonga aloqador)

¹⁸¹ Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент, 1984. – Б.5.

¹⁸² Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент, 1981. – В. 5.

Shuningdek, somatizmlarni joylashuviga ko‘ra quyidagicha 2 guruhga ajratish mumkin a) tashqi a‘zolar (*qo‘l, oyoq, bosh, quloq va b.*) b) ichki a‘zolar (*jigar, yurak, buyrak, qorin ...*)¹⁸³.

Shu kunga qadar somatizmlar tilshunoslikning frazeologiya sohasi orqali ko‘proq o‘rganilgan. Somatik frazeologizmlar atamasi esa E.M. Mordkovich tomonidan “Семантико-тематические группы соматических фразеологизм” maqolasida qo‘llangan. Ilk marta somatik frazeologizmlarning komponent tarkibi semantik-funksional yo‘nalishda 1977-yilda M.V.Oryol tomonidan tadqiq etilgan. 1980-yilda esa yana bir tilshunos olim V.M.Mokiyenko o‘zining “Славянское фразеология” asarida slavyan tilidagi frazeologizmlarni o‘rganib, somatik frazeologik birliklarga ham to‘xtalib o‘tgan.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor somatik frazeologizmlar A.Isayevning "O‘zbek tilining somatizm frazeologiyasi" ishida tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida somatizmlar ularning sinonimiyasi, antonimiyasi, omonimiyasi, shuningdek, tilning kommunikativ funksiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

Somatik komponentli paremalarni o‘rganish nafaqat paremiologiya, balki semasiologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhimdir. Chunki bunday birliklarda xalq tafakkuri va milliy dunyoqarashining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Til taraqqiyoti davomida ko‘plab so‘zlar o‘zining dastlabki ma‘nosidan tashqari yangi ma‘nolarni ham hosil qiladi. Bunday jarayon ikkilamchi nominatsiya deb yuritiladi. Ikkilamchi nominatsiya – mavjud til birliklarining semantik imkoniyatlari asosida yangi obyekt va tushunchalarni nomlash jarayonidir. Somatik komponentli paremalarni tadqiq etishda ikkilamchi nominatsiya muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki paremalardagi somatizmlar asosan ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. Tilshunoslikda ma‘no ko‘chishi predmet va hodisalar o‘rtasidagi ma‘lum semantik aloqalar natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilinadi. Ma‘no ko‘chishi tilning boyishi, obrazlilikning kuchayishi va tafakkurning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ma‘no ko‘chishi quyidagi usullar orqali amalga oshadi:

1. Metafora;
2. Metonimiya;
3. Sinekdoxa;
4. Vazifadoshlik.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metafora somatik komponentli paremalarda uchraydigan eng mahsuldor usul hisoblanadi. Metafora ikki predmet yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida yuzaga keladigan semantik ko‘chishdir.

Somatik komponentli paremalarda metafora insonning jismoniy a‘zolari va ruhiy-ma‘naviy olami o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida shakllanadi. Masalan, *Ko‘z— qo‘rqoq, qo‘l—*

¹⁸³ Вакк.Ф.О Соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке автореф. дис. канд. филол. наук – Таллин, 1964. 23с.

botir maqolini tahlilga tortsak, bunda ko‘z va qo‘l anatomik a‘zo sifatida emas, insonning turli ruhiy holatlarini ifodalovchi ramziy birliklar sifatida qo‘llangan. Maqolda insonning biror-bir ishni boshlashdan oldingi ichki ikkilanishi, qo‘rquvi obrazli tarzda ifodalangan.

Yuzi qattiq nasib etmaganini yer paremasini tahlil qiladigan bo‘lsak, *yuzi qattiq* birligi ko‘chma ma’noda qo‘llanib, andishasiz, uyatni bilmaydigan inson nazarda tutilmoqda, metafora asosida so‘z ma’nosining ko‘chishi kuzatilmoqda. Paremaning umumiy ma’nosi esa andishasiz, uyat, or-nomusi bo‘lmaga inson o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsaga ham da’vogarlik qiladi, shaxsiy manfaati uchun hech narsadan qaytmaydi degan xulosani beradi.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, somatik komponentli paremalarda *yuragi toza, ko‘ngli qora, yuragi tor, yurak dog‘i, og‘zi ola, qo‘li kalta, yuzi qattiq, beti qalin* singari obrazli metaforalardan unumli foydalanilgan. Metaforik paremalarda somatizmlar abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish vositasi sifatida xizmat qilgan.

Metonimiya qayta nomlash deganidir. Bunday ma’no ko‘chishida tashqi va ichki o‘xshashliklar hisobga olinmaydi, balki so‘z ma’nolarining bir-biriga aloqadorligi inobatga olinadi. Metonimiya bu predmet va hodisalarning o‘zaro yaqinligi asosida yuzaga keladigan semantik hodisadir. So‘zlarni metonimik ma’noda qo‘llash ma’lum bir birikmaga aloqador tushunchalarni bir so‘z bilan ifodalashdir. Buning natijasida shaklda ixchamlik, semantik jihatdan esa keng qamrovlilikni ko‘rish mumkin. Akademik A.Hojiyev metonimiyani so‘zlarning ma’nosidagi o‘zgarish yoki siljish natijasida emas, balki nom ko‘chishi oqibatida yuzaga kelishini ta’kidlab, uni nolingvistik jarayon tarzida izohlaydi¹⁸⁴. Somatik komponentli paremalarda bu hodisa a‘zo nomi uning funksiyasi yoki faoliyati bilan almashishida namoyon bo‘ladi: *Til boshga balo keltirar*. Ushbu maqolda til biologik a‘zo emas, nutqiy faoliyat semasini namoyon etmoqda. Maqol mazmunidan esa ehtiyotsiz, o‘ylamay gapirish boshga balo keltirishi anglashiladi. Xuddi shuningdek, *Og‘izdan chiqqan so‘z – otilgan o‘q* maqolida ham og‘iz somatizmi insonning biologik a‘zosi emas, balki gapiruvchi insonning o‘zini ifodalab kelgan. Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, metonimiya asosida ma’nosi ko‘chgan somatik komponentli paremalarda somatik komponent va u bilan bog‘liq faoliyat o‘rtasidagi semantik yaqinlik asosiy omil hisoblanadi.

Sinekdoxa “birga anglamoq” degan ma’noni bildiradi, qism va butun o‘rtasidagi munosabatga asoslanadigan ma’no ko‘chish hodisasidir. Tilshunoslikda sinekdoxaga metonimiyaning bir turi sifatida qaraladi. Chunki har ikkisi ham predmetlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikka asoslanadi.

Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar maqolini tahlil qiladigan bo‘lsak, *bosh* leksemasi inson tanasining bir qismini emas, balki butunlikni – insonni ifoda etib kelgan. Inson sog‘-salomat

¹⁸⁴ Каримов С.А. Бадийи услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.

bo‘lsa, qolgan barcha boylik, mol-dunyo topiladi, hamma ishlar amalga oshadi, eng muhimi, tinchlik va omonlik bo‘lsa bo‘lgani degan ma’no yuzaga chiqadi.

Bir bosh - balo bosh, ikki bosh – mardona bosh maqolida ham bosh somatizmi aql egasi, maslahatchi va inson kabi semalarni reallashtirib kelmoqda.

Somatik komponentli maqollarda uchraydigan sinekdoxa hodisasi umumlashtirish xususiyati bilan bog‘liq. Odamlar ko‘pincha predmetning eng muhim va ko‘zga tashlanadigan qismini butun predmet o‘rnida qo‘llaydilar. Masalan bosh – inson, qo‘l – yordamchi, mehnatkash ishchi, ko‘z – kuzatuvchi shaxs, til – nutq egasi kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik predmetlarning bajaradigan vazifasi o‘xshashligi asosida yuzaga keladigan ma’no ko‘chish usulidir. Bunda predmetlarning tashqi o‘xshashligi emas, balki funksional yaqinligi muhim ahamiyat kasb etadi va aynan shu jihati bilan metaforadan farqlanadi. Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek xalq paremlarida vazifadoshlik metafora va metonimiyaga nisbatan kamroq uchraydi. Xalq tafakkurida ayrim somatizmlar ular bajaradigan vazifasi bilan bog‘langan va aynan shu holat vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishini hosil qiladi. Masalan, *Odam – gavhar, qo‘li – gul* maqolida *qo‘l* leksemasi u bajaradigan vazifani, jismoniy harakatni ifoda etib kelgan. Tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chishlarda a’zoning biologik xususiyati emas, balki bajaradigan funksiyasi asosiy o‘ringa chiqadi.

NATIJALAR

O‘zbek xalq paremlarida:

- bosh – aql va hayot ramzi;
- yurak – mardlik belgisi;
- qo‘l – mehnat timsoli;
- ko‘z – qanoat va nazorat ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu holat xalqning qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun somatik komponentli paremlar nafaqat til hodisasi, balki madaniy fenomen sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tillarda somatik komponentli paremlar shakllanishiga til sohiblarining madaniy hayoti, marosim va urf-odatlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun ular xoh oddiy nutqda, xoh badiiy nutqda bo‘lsin, o‘sha xalqning madaniyati, turmush tarzi, milliy dunyoqarashi, psixologiyasi bilan bog‘liqlikda qo‘llanadi. Somatik komponentli o‘zbek xalq paremlari xalq tafakkurining obrazli ifodasi sifatida alohida semantik tizimni tashkil etadi. Somatizmlar maqollar tarkibida faol ikkilamchi nominatsiya manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Somatik paremlarda ma’no ko‘chishining asosiy usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kuzatiladi. Ularning ichida metafora eng mahsuldor va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Metafora orqali insonning ruhiy va ma’naviy olami ifodalansa,

metonimiyada a‘zo va uning faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish asosiy rol o‘ynaydi. Sinekdoxada qism-butun munosabati, vazifadoshlikda esa funksional o‘xshashlik ustuvorlik qiladi.

Maqollar tarkibidagi somatik komponentlar orqali o‘zbek xalqining axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi, qadriyatlari va olam haqidagi tasavvurlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Shu bois, somatik komponentli paremalarni ma‘no ko‘chishi nuqtayi nazaridan tadqiq etish o‘zbek tilining semantik imkoniyatlari hamda milliy tafakkur xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur birliklarni tahlilga tortish zamonaviy paremiologiya, semasiologiya, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент, 1984. – Б.5.
2. Вакк.Ф.О Соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке автореф. дис. канд. филол. наук – Таллин, 1964. 23с.
3. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 237 б.
4. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.
5. Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 352 б.